“AVO bank” AJ
Sodiqlik dasturining umumiy shartlari

“AVO bank” AJ Boshqaruvi yig‘ilishining 2026-yil 22-oktyabrdagi 28/26-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

2026-yil 5-noyabrdan kuchga kiradi

«AVO bank» AJ Sodiqlik dasturining

UMUMIY SHARTLARI

1. Atamalar va ta’riflar

Aksiya — Mijozlarning Bankka bo‘lgan sodiqligini shakllantirish va oshirishga qaratilgan, Sodiqlik dasturi doirasida o‘tkaziladigan marketing va/yoki reklama tadbiri bo‘lib, uning doirasida Dastur ishtirokchisiga Umumiy shartlar va/yoki Qoidalarda belgilangan shartlar bajarilganda Bonuslar olish taklif etiladi.

Bank — “AVO bank” aksiyadorlik jamiyati (“AVO bank” AJ), STIR 207257279, ro‘yxatdan o‘tish raqami 16/1, manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko‘chasi, 29A-uy, telefon raqami: +998 78 888-78-78, elektron pochta manzili: info@avo.uz, Dastur tashkilotchisi hisoblanadi.

Bonus — Bank tomonidan hisoblab chiqiladigan va Bankning Mobil ilovasidagi Mijozning Bonus hisobvarag‘iga o‘tkaziladigan, 1 bonus ball = 1 o‘zbek so‘mi virtual ekvivalentida hisoblanadigan bonus ballari.

Bonus hisobvarag‘i — Dastur ishtirokchisiga Dasturda ishtirok etish boshlangan sanada Bankning axborot tizimida ochiladigan nobank hisobvarag‘i.

Bonuslarni to‘lash — Umumiy shartlarga muvofiq Mijozning Hisobvarag‘iga pul mablag‘larini bir vaqtning o‘zida o‘tkazgan holda Dastur ishtirokchisining Bonus hisobvarag‘idan Bonuslarni hisobdan chiqarish.

Bosh shartnoma — “AVO bank” AJda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Bosh shartnoma.

Kartani foydalanishga berish to‘g‘risida shartnoma – Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan Kartani chiqarish va unga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma.

Karta – Kartani foydalanishga berish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq Bank tomonidan Mijozga chiqarilgan virtual, plastik va/yoki raqamli karta.

Bank mijozi (Mijoz) / Dastur ishtirokchisi – Bank bilan Bosh shartnoma tuzgan, Bankning Mobil ilovasida Raqamli identifikatsiyadan o‘tgan va Bank Kartasini olgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

Bankning mobil ilovasi – mobil qurilma (smartfon, planshet va h.k.) uchun ilova bo‘lib, u Bank va Foydalanuvchi va/yoki Mijoz o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish, jumladan, ma’lumot almashish, Arizalar/So‘rovnomalar yuborish (texnik imkoniyat mavjud bo‘lganda) va Bankning ixtiyoriga ko‘ra ayrim operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Umumiy shartlar – Bankning sodiqlik dasturi shartlarini belgilovchi ushbu hujjat.

Xarid – Dastur ishtirokchisi tomonidan Kartadan foydalangan holda tovar va xizmatlar uchun amalga oshirilgan to‘lov Operatsiyasi.

Qoidalar – Bank mijozlarining Aksiyalar, tanlovlar va boshqa rag‘batlantiruvchi tadbirlarda ishtirok etish

shartlari hamda tartibini belgilovchi Aksiyalar, tanlovlar va boshqa rag‘batlantiruvchi tadbirlarni o‘tkazish qoidalari.

Sodiqlik dasturi (Dastur) — Bank mijozlarining sodiqligini saqlab qolish maqsadida to‘lanadigan va/yoki taqdim etiladigan Bonuslarni qo‘llash, hisoblash va ulardan foydalanish qoidalari.

Bank sayti – Bankning Internet tarmog‘idagi quyidagi manzilda joylashgan rasmiy veb-sayti: www.avobank.uz.

Hisobvaraq – Dastur ishtirokchisiga Kartani foydalanishga taqdim etish to‘g‘risidagi shartnoma asosida Bankda ochilgan joriy bank hisobvarag‘i bo‘lib, unga Karta chiqarilgan.

Umumiy shartlarda bosh harf bilan yozilgan boshqa atamalar Bosh shartnomadagi bilan bir xil ma’noga ega.

2. Umumiy qoidalar

2.1. Dastur Bankning amaldagi Mijozlarining sodiqlik darajasini oshirish, Bankning yangi Mijozlarini jalb qilish, Bank mahsulotlari va Bank mobil ilovasidan foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2.2. Dastur 2023-yil 1-dekabrdan boshlab muddatsiz davr mobaynida amal qiladi.

2.3. Umumiy shartlar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ommaviy ofertani akseptlash muddati cheklanmagan, ommaviy ofertani muddatidan oldin chaqirib olish imkoniyati nazarda tutilmagan.

2.4. Mijozning Bosh shartnomaga qo‘shilishi, Bankning Mobil ilovasida Raqamli identifikatsiyadan o‘tishi va Bank Kartasini olishi Mijoz tomonidan Umumiy shartlarni to‘liq va so‘zsiz qabul qilish (akseptlash) hisoblanadi.

2.5. Umumiy shartlar Bank Saytida joylashtiriladi.

3. Sodiqlik dasturi doirasidagi tadbirlar

3.1. Bank Dastur doirasida Aksiyalar, tanlovlar va shu kabi shakllardagi tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tasdiqlaydi. Qoidalar bilan Bonuslarni hisoblash, taqdim etish va ulardan foydalanish tartibi belgilanadi.

4. Bonuslarni taqdim etish tartibi

4.1. Bank Dastur Ishtirokchilari uchun topshiriqlarni (keyingi o‘rinlarda – Topshiriqlar) belgilash va Bonuslarni taqdim etish orqali Ishtirokchilar faolligini oshirishni rag‘batlantirish huquqiga ega:

4.1.1. Bank Topshiriqlar tayinlanadigan Ishtirokchilar ro‘yxatini, ularni bajarish shartlarini, shuningdek, amal qilish muddatlari va ularni bajarganlik uchun hisoblanadigan Bonuslar miqdorini mustaqil ravishda belgilaydi;

4.1.2. Bitta Ishtirokchiga bir vaqtning o‘zida bir nechta Topshiriq tayinlanishi mumkin;

Ishtirokchilar Topshiriqlar haqida SMS va/yoki Mobil ilovadagi Push-bildirishnomalar orqali xabardor qilinadi;

4.1.3. Topshiriqlarda ko‘rsatilgan harakatlarni bajarish Ishtirokchining yuqori faollik uchun Bonus olishga roziligini anglatadi.

4.2. Bank Dastur Ishtirokchilariga Qoidalarga muvofiq hamda Dastur doirasida o‘z ixtiyoriga ko‘ra Bonuslar hisoblash huquqiga ega.

4.3. Agar Umumiy shartlarda nazarda tutilgan bo‘lsa, Bank Dastur Ishtirokchilariga Xaridlarni amalga oshirganlik uchun Bonuslar hisoblash huquqiga ega.

4.4. Dastur doirasida quyidagilar Xaridlar hisoblanmaydi:

4.4.1. Bank Tariflariga muvofiq Imtiyozli operatsiyalar ro‘yxatiga kirmaydigan operatsiyalar;

4.4.2. Bank komissiyalarini to‘lash, komissiyalar uchun Bonuslar to‘lash Umumiy shartlarda yoki Aksiyalarni o‘tkazish qoidalarida bevosita nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

4.4.3. Bank Mobil ilovasining “To‘lovlar” bo‘limidagi operatsiyalar (aloqa xizmatlari, davlat xizmatlari, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun to‘lovlar), Bonuslar to‘lash Umumiy shartlarda yoki Aksiyalarni o‘tkazish qoidalarida bevosita nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

4.5. Bank Dasturning barcha Ishtirokchilari uchun yoki individual tartibda Dasturning ayrim Ishtirokchilari uchun Bonus hisobvarag‘iga Bonuslar hisoblash limitini belgilash huquqiga ega.

4.6. Bonus hisobvarag‘iga Bonuslar hisoblanayotganda, Bonuslar miqdori Bank tomonidan matematik qoidalarga muvofiq eng yaqin butun songacha yaxlitlanadi.

4.7. Dastur doirasida Mijozga hisoblanishi mumkin bo‘lgan Bonuslarning maksimal miqdori oyiga 500 000 (besh yuz ming) Bonusni tashkil etadi.

5. Bonuslarni to‘lash tartibi

5.1. Bonuslarni to‘lash Dastur ishtirokchisining so‘roviga binoan Bankning mobil ilovasi orqali yoki Bank tashabbusi bilan Umumiy shartlarda belgilangan tartibda Bank tomonidan amalga oshiriladi.

5.2. Bonuslarni to‘lash uchun zarur bo‘lgan Bonuslarning minimal miqdori
Dastur ishtirokchisining so‘roviga binoan 200 000 (ikki yuz ming) Bonusni tashkil etadi. Bank ushbu minimal qiymatni Bankning mobil ilovasida o‘zgartirishga haqli.

O‘tkazma Ishtirokchi tanlagan Hisobvaraqqa amalga oshiriladi.

Bonuslarni o‘tkazish (hisobga kiritish) uchun mavjud Hisobvaraqlar ro‘yxati Bank tomonidan belgilanadi va Bankning mobil ilovasida ko‘rsatiladi.

5.3. Bank Dastur ishtirokchisining so‘rovisiz mustaqil ravishda Bonuslarni to‘lashni amalga oshirishga haqli. Avtomatik to‘lovning miqdori va shartlari Bank tomonidan belgilanadi.

5.4. Bonuslar to‘langanda, Bank Mijozning Bonus hisobvarag‘idagi mavjud qoldiqni To‘lov summasiga

kamaytiradi.

5.5. Agar Mijoz Bonuslardan ular hisoblangan sanadan e’tiboran 6 (olti) oy davomida foydalanmasa, Bank ushbu muddati tugagan Bonuslarni bekor qilishga haqli.

5.6. Dasturda Dastur ishtirokchisi uchun Bonuslarni boshqa Dastur ishtirokchilariga o‘tkazish, shuningdek, Bonuslardan Umumiy shartlarda ko‘rsatilganidan tashqari har qanday boshqa usullar bilan foydalanish imkoniyati nazarda tutilmagan.

5.7. Bonuslar faqat hisobga olish maqsadlarida qo‘llaniladi, to‘lov vositasi hisoblanmaydi va bo‘lishi mumkin emas, ularni naqdlashtirish va/yoki uchinchi shaxslarga o‘tkazish mumkin emas.

5.8. Bank Dastur Ishtirokchisini oldindan xabardor qilmasdan va sabablarini tushuntirmasdan Bonuslarni hisoblash va/yoki To‘lashni to‘xtatib turish, cheklash, shuningdek bir tomonlama tartibda to‘xtatish huquqiga ega, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, quyidagi hollarda:

5.8.1. Dastur Ishtirokchisi tomonidan Bosh shartnoma va/yoki Dastur shartlari buzilganda;

5.8.2. Dastur Ishtirokchisi tomonidan Kredit bo‘yicha Majburiy to‘lovni to‘lash majburiyatlari buzilganda;

5.8.3. Dastur Ishtirokchisining Hisobvaraqlariga xatlov qo‘yilganda;

5.8.4. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Operatsiyalar Bloklanganda yoki to‘xtatib turilganda.

6. Cheklovlar

6.1. Bosh shartnoma va/yoki Kartani foydalanishga taqdim etish to‘g‘risidagi shartnoma bekor qilinganda, Sodiqlik dasturi bo‘yicha barcha foydalanilmagan/olinmagan Bonuslar bekor qilinadi hamda Bank tomonidan hech qanday shaklda tiklanmaydi, kompensatsiya qilinmaydi va/yoki to‘lab berilmaydi.

6.2. Bank har qanday Mijozni Dastur Ishtirokchilari safidan ogohlantirishsiz va sabablarini tushuntirmasdan chiqarib tashlash huquqiga ega, agar Mijoz:

6.2.1. Bosh shartnoma, Dastur va/yoki Bankning boshqa hujjatlari shartlariga rioya qilmasa, va/yoki

6.2.2. Firibgarlik harakatlarini sodir etsa, va/yoki

6.2.3. Dastur doirasida Mijozga taqdim etiladigan har qanday imtiyozlar va/yoki Bonuslarni suiiste’mol qilsa, va/yoki

6.2.4. Bankka chalg‘ituvchi axborotni yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etsa, va/yoki

6.2.5. Bankning ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlarni tarqatsa, va/yoki

6.2.6. Boshqa Foydalanuvchilar va/yoki Mijozlarni chalg‘itsa.

6.3. Bank Dastur ishtirokchisini ogohlantirmasdan va sabablarini tushuntirmasdan Bonuslarni

bermaslik va/yoki Bonuslarni to‘liq yoki qisman bekor qilish huquqiga ega, jumladan, quyidagi hollarda:

6.3.1. Bank tomonidan Dastur shartlarini suiiste’mol qilish alomatlari aniqlanganda va/yoki

6.3.2. Dastur ishtirokchisi tomonidan Bosh shartnoma shartlari va/yoki Bankning boshqa hujjatlari buzilganda va/yoki

6.3.3. Agar Bank Dastur ishtirokchisining xatti-harakatlarini/harakatsizligini insofsiz va/yoki Dasturda ishtirok etish shartlarini boshqacha tarzda buzuvchi deb hisoblasa va/yoki

6.3.4. Mijoz tomonidan Kredit va Karta bo‘yicha Majburiy to‘lovni to‘lash majburiyatlari to‘lov sanasi yetib kelgan paytdan boshlab 60 (oltmish) va undan ortiq kalendar kun davomida bajarilmaganda va/yoki

6.3.5. Agar Dastur ishtirokchisi Bankning fikriga ko‘ra yetarli darajada faollik ko‘rsatmasa va/yoki Bosh shartnoma va/yoki Umumiy shartlarga muvofiq
Bank mahsulotlaridan foydalanish shartlarida nazarda tutilgan zarur harakatlarni amalga oshirmasa va/yoki

6.3.6. Agar Bonuslar yanglishib, jumladan, Bank Mobil ilovasining ishidagi texnik nosozlik natijasida berilgan bo‘lsa va/yoki

6.3.7. Agar Xarid summasi tovarning qaytarilishi yoki xizmatdan voz kechilishi munosabati bilan Aksiya ishtirokchisining Hisobvarag‘iga to‘liq yoki qisman qaytarilgan bo‘lsa.

6.4. Agar berilgan Bonuslarni bekor qilish natijasida Dastur ishtirokchisining Bonus hisobvarag‘ida manfiy balans yuzaga kelsa, keyingi Bonuslar birinchi navbatda uni qoplash uchun sarflanadi.

6.5. Bank Bosh shartnomada nazarda tutilgan usullarda tegishli xabarnomani joylashtirish orqali barcha Dastur Ishtirokchilari uchun Bonuslar hisoblanishini to‘xtatish va/yoki Bonuslarni to‘liq yoxud qisman bekor qilish huquqiga ega.

6.6. Bonuslarni hisoblash bilan bog‘liq har qanday e’tiroz yuzaga kelgan taqdirda, Bankning javobgarligi Dastur Ishtirokchisining Bonus hisobvarag‘iga tegishli miqdordagi Bonuslarni o‘tkazib berish bilan cheklanadi.

7. Boshqa shartlar

7.1. Bank Umumiy shartlarga bir tomonlama tartibda o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritishga haqli. Umumiy shartlarga kiritilayotgan o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ular kuchga kiradigan sanadan kamida 10 (o‘n) kalendar kun oldin Bosh shartnomada nazarda tutilgan usullarda joylashtiriladi.

7.2. Mijoz Umumiy shartlardagi o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalarni mustaqil ravishda kuzatib borish majburiyatini oladi.

7.3. Agar o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kuchga kirgan sanadan keyin Mijoz Kartani foydalanishga taqdim etish to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha xizmatlar va Mahsulotlardan foydalanishni davom

ettirsa, ushbu holat Mijozning kiritilayotgan o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalarga so‘zsiz hamda to‘liq roziligini anglatadi.

7.4. Dastur Bankning kollegial boshqaruv organlari a’zolari va boshqa xodimlariga o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda shaxsiy ustunlik berilishini nazarda tutmaydi, bunda Bankning manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni tartibga solish siyosati talablari inobatga olinadi, yoxud taqdim etish uchun foydalanish uchinchi shaxslarga, shuningdek, Bankka aloqador shaxslarga Dasturning boshqa Ishtirokchilariga nisbatan bunday ustunlikni taqdim etmaydi.

7.5. Dastur doirasida hisoblanadigan Bonuslar Bank bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan shaxslarga xizmat majburiyatlarini bajarganlik uchun rag‘batlantirish sifatida, shuningdek tovarlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov (haq) yoki moddiy yordam ko‘rsatish sifatida to‘lanmaydi.

7.6. Bank Dasturda ishtirok etish munosabati bilan Dastur Ishtirokchisida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar, chiqimlar va har qanday boshqa xarajatlarni qoplamaydi va kompensatsiya qilmaydi.

7.7. Dastur Ishtirokchisi Umumiy shartlarga qo‘shilish Bank Bonuslarda ifodalangan moddiy naf ko‘rinishidagi daromaddan soliq ushlab qolmasligi, Ishtirokchining o‘zi esa bunday daromadni mustaqil ravishda deklaratsiya qilish va qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli soliqlarni to‘lash majburiyatini olishi to‘g‘risida Bank manziliga yozma ariza yuborishga tenglashtirilishiga rozilik beradi. Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq barcha nizolar va kelishmovchiliklar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda sudda ko‘rib chiqilishi lozim.

7.8. Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan barcha holatlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

7.9. Dastur Ishtirokchisi Umumiy shartlarni bilishi va ularga rioya qilishi shart.